ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Kelib tushdi: 26.07.2026 · Qabul qilindi: 20.09.2026 · Nashr etildi: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/vtszjw31

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

“Maqomot”dan darak...
musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlanadi

(News from “Maqomot”…
(Dedicated to the 80th anniversary of the birth
of musicologist Otanazar Matyoqubov)

Saibjon Begmatov

The Department of History and Theory of Uzbek Maqom,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: soibjonbegmatov@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-8395-2748

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek mumtoz musiqa san’ati namoyandalaridan biri, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari san’at arbobi, taniqli musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Otanazar Matyoqubovning hiyoti, ijodi va o‘zbek musiqasiga qo‘shgan hissasi xususida so‘z yuritiladi. Musiqa ijodiyotining inson hayoti va ma’naviy dunyosining rivojiga ta’sirini buyukligi, shubhasiz ijodkorlarning buyukligini aks etuvchi asarlarida mujassamdir. Aynan shu uslubda musiqashunos olimning olib borgan ijodiy va amaliy ishlari, yaratgan ilmiy-nazariy maqolalari, yirik risolalar hamda musiqiy an’ananing zamonaga xos idrok etilishida amalga oshirilgan ilmiy-amaliy izlanishlar samarasi yoritiladi. Olimning har qanday amalda ilmiy mezonga tayanishi doimo uning muvaffaqiyatini belgilab bergan. Bu boradagi barcha yutuqlar uning tadqiqot uslubini mevasi sifatida shakllangan. Muallifning musiqiy idroki tarix va zamon, nazariya va amaliy ma’lumotlarga tayanganligi bilan xarakerlanganligi, lekin, mumtoz musiqani anglashda esa asosiy manba bu – jonli ijro jarayoni ekanligiga ishora qilinadi. asoslanganligidadir. Chunki, musiqaning ko‘p tomoyillari, bevosita ijrochilik bilan uyg‘unlashishi muqarrardir. Yaratilishdan toki musiqiy cholg‘u, an’ana, ijrochi, bastakor, zamonaviy talqin va hattoki uslublar sarchashmalarigacha ijrodan boshlanadi. Asrar davomida shakllanib rivojlangan o‘zbek milliy ijrochilik san’atini musiqa dunyosining eng sara omillari va ma’lumotlari jamlangan ilmlar ummoni desak xato bo‘lmaydi. Ilmsiz musiqaning qonun-qoidalari, ma’naviy dunyosi hamda siru-asrorlariga erishib bo‘lmaydi. Musiqani idroklash va ijodiy yondoshish doimo

ilmlar kaliti sifatida o‘z natijasini ko‘rsatib kelgan. Otanazar Matyoqubovning ijodiy faoliyati ham bunga bir misoldir.

Kalit so‘zlar: musiqashunoslik, mumtoz musiqa, meros, ilm, idrok, nazariya, ijrochilik, an’ana, zamonaviylik, ijod, kitoblar, tadqiqot,

Abstract

The article discusses the life, work, and contribution to Uzbek music of Otanazar Matyakubov—one of the prominent representatives of Uzbek classical musical art, Honored Worker of Arts of the Republic of Uzbekistan and the Republic of Karakalpakstan, a well-known musicologist, PhD in Art History, and professor. The greatness of the impact of musical creation on the development of human life and the spiritual world is undoubtedly embodied in the works of prominent creators. In this very vein, the article highlights the scientific and practical activities of the musicologist, his scientific and theoretical articles, major treatises, and the results of scientific and practical research aimed at a modern understanding of musical tradition. The scientist's reliance on scientific criteria in any practical activity has always determined his success. All achievements in this field have been formed as a result of his research methodology. It is pointed out that the author's musical perception was characterized by reliance on history and modernity, theory and practical data, yet the primary source in comprehending classical music is the process of live performance. This is because many principles of music are inevitably harmonized with direct performance. From the creation of musical instruments, traditions, performers, composers, modern interpretations, and even the sources of styles—everything begins with performance. The Uzbek national performing art, formed and developed over centuries, can undoubtedly be called an ocean of sciences containing the finest factors and knowledge of the musical world. Without science, it is impossible to attain the laws, spiritual world, and secrets of music. The perception of music and a creative approach have always proven effective as a key to knowledge. The creative activity of Otanazar Matyakubov is a prime example of this.

Keywords: musicology, mumtoz music, science, perception, theory, performance, tradition, modernity, creativity, risola, research.

Аннотация

В статье рассматривается жизнь, творчество и вклад в узбекскую музыку одного из ярких представителей узбекского классического музыкального искусства, заслуженного деятеля искусств Республики Узбекистан и Республики Каракалпакстан, известного музыковеда, кандидата искусствоведения, профессора Отаназара Матякубова. Величие влияния музыкального творчества на развитие человеческой жизни и духовного мира

неизменно воплощено в произведениях выдающихся деятелей искусства. Именно в этом ключе освещаются творческая и практическая деятельность ученого-музыковеда, его научно-теоретические статьи, крупные монографии, а также результаты научно-практических изысканий, направленных на современное осмысление музыкальной традиции. Опора ученого на научные критерии в любой практической деятельности всегда определяла его успех. Все достижения в этой области сформировались как результат его уникального исследовательского метода. В статье подчеркивается, что музыкальное восприятие автора характеризовалось опорой на историю и современность, теорию и практические данные, однако главным источником в постижении классической музыки является процесс живого исполнения. Это обусловлено тем, что многие принципы музыки неизбежно гармонируют с непосредственным исполнительством. От зарождения музыкальных инструментов, традиций, исполнителей, композиторов, современных интерпретаций и вплоть до истоков стилей – всё начинается с исполнения. Узбекское национальное исполнительское искусство, формировавшееся и развивавшееся на протяжении веков, можно назвать настоящим океаном наук, вобравшим в себя самые лучшие факторы и сведения музыкального мира. Без науки невозможно постичь законы, духовный мир и тайны музыки. Восприятие музыки и творческий подход всегда доказывали свою эффективность в качестве ключа к познанию. Творческая деятельность Отаназара Матякубова является ярким тому примером.

Ключевые слова: музыковедение, классическая музыка, наследие, наука, восприятие, теория, исполнительство, традиция, современность, творчество, книги, исследование

Hayotda shunday insonlar uchraydiki, ularga e’tibor bilan yondoshish, ijodlaridan bahramand bo‘lish, ulardan o‘rnak olish har tomonlama ibrat va savob. Zotan, hayot mazmunining negizida ijodiyot turishi muqarrardir. Borliqning uchinchi mezoni ijod mahsuli bilan bog‘liq ekanligi va ularning asosida inson tafakkuri turishi barchaga ayondir. Pirovardida ijodiyot har tomonlama ilm bilan tutashib, bilimli amal mahsuloti sifatida mukammal darajaga etadi. Shu bois bo‘lsa kerak mashoyiqlar, “Har qanday muammoni kaliti ilm” deb bejiz aytishmagan. Ilm



qilishga qadam qo‘yganlar esa chinakam ijod, sog‘lom tab va to‘g‘ri amal o‘rganadi, yaxshilarga ergashadi va ezgulik keltirish uchun mehnat qiladi. Shu bois ularning ijodi - ikinchi hayoti kelajak uchun qoldirgan mahsuli bilan o‘lchaniladi. Sog‘lom va solih ijod samarasi hech qachon unutilmaydi.

O‘zbek musiqa san’ati rivojiga yuzlagan namoyandalar barakali hissa qo‘shganlar. Ular orasida musiqaning asl qadriyatlar va an’analar bilan tutashgan mezonlarini o‘rgangan olim va allomalar hamda muqaddas merosga tatiguvlik asarlar yaratib qoldirgan bastakoru - ijodkorlar talaygina. San’atimizning ana shunday namoyandalari qatorida musiqashunos Otanazar Matyoqubovning ham munosib o‘rni bor ekanligini e’tirof etib o‘tish joiz.

Olib borilgan ijodiy va amaliy ishlar, yaratilgan ilmiy-nazariy maqolalar, yirik-yirik risolalar hamda musiqiy an’ananing zamonaga xos idrok etilishida amalga oshirilgan ilmiy-amaliy izlanishlar samarasi bunga asos bo‘la oladi desak adashmaymiz. O.Matyoqubovning har qanday amalda ilmiy mezonga tayanishi doimo uning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Ustozning ilmiy qarashlarida muammo echimining uslubi o‘ziga xosligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, har qanday tadqiqot, muayyan maqsad va uning negizidagi muammo hamda uning echimi bilan xarakterlanadi. Gap ana shu muammoga qaysi tomonlama yondoshish va uni echimida tanlangan uslubdadir. Buni oddiygina qilib «Ish ustida ishlash» desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Nazarimda olimning ana shu jihati, uning butun ijodiga asos bo‘lgandek tuyuladi. Ko‘p yillik shogirdlik davrim, birgalikdagi hamkorlik jarayonlarida ko‘rib, guvoh bo‘lib olgan ta’ssurotlarim bu

haqda mulohaza qilishga asos bo‘la oladi. Chunonchi, uslub-bu ham muammo echimi uchun kalitdir.

Shu o‘rinda, olimning asosiy vazifasi nimadan iborat degan fikr tug‘iladi. Odatda olimni ishi, yuzta faktdan bitta qonunni idrok etish, dalillar bilan asoslash hamda aniq tushuntirish desak haqiqatga yaqinroq bo‘ladi. Oldinlari muammoni ko‘pligi asosan materialning kamyobligi bilan bog‘liq edi. Bu esa o‘z-o‘zidan katta mehnat, izlanish va aniq faktlarni saralash bilan bog‘liq jarayon.

Musiqiy tadqiqot olib borishda kimdur majud kitoblarning tavsifini asoslab oladi, kimdur nashr etilgan nota matnlarni muqoyisa qiladi, kimdur jonli ijroga tayanib, kuy, ohang zaminidagi qonuniyatlarni borliq bilan bog‘liq, ya’ni amaliyot mezoni tarzida tadqiq etadi. Musiqani merosdan (borliqdan), kuydan va ohanglar sehridan kelib chiqib tadqiq etish haqiqiy musiqashunoslar amallaridan desak adashmagan bo‘lamiz. Nazarimda, musiqashunoslik ilmning ana shu tarmog‘iga katta e’tibor berish ijobiy natijalarga olib kelishi begumon.

Ma’rifat darajasiga erishgan hazrat A.Navoiyning «Kuylar yaratgan», «Tanbur cholg‘usini ijro eta bilgan» deyishlarining ham asosiy sabablaridan biri shunda bo‘lsa kerak. Zero, A.Navoiy asarlarida musiqa ilmiga tegishli juda ham ko‘p ma’lumotlar, musiqiy iboralar, ijrochilikka bog‘liq masalalar mavjud ekanligini musiqashunos ahli yaxshi biladilar.

Keyingi paytlarda bajarilayotgan ishlarning asosi, ya’ni fundamentallik o‘rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aslida bu jarayon ilmning tub qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Albatta, o‘z o‘rnida ilmiy ishning asosi va zarur bo‘lgan faktologik poydevorini tashkil etadi. Olim uchun-buning echimi – talqin etilgan ma’lumotlari bilan xarakterlanadi. Ma’lumot esa bu fakt demakdir.

Musiqani idroklashda Otanazar ustoz darhaqiqat ko‘p tarixiy va zamonaviy, nazariy va amaliy ma’lumotlarga tayanadi. Lekin, har qanday an’anaviy musiqani anglashdagi asosiy manba bu – jonli ijro jarayonidir. Chunonchi, musiqaning ko‘p

tomoyillari, darhaqiqat ijrochilikka tutashadi. Yaratilishdan boshlab, musiqiy cholg‘ular, milliy an’ana, ijrochi, yaratuvchi-bastakor, zamonaviy talqin va hattoki uslublar sarchashmasi haqiqiy ijrodan boshlanadi.

Bundan chiqadiki asrlar davomida shakllangan ijrochilik tamoyillar tarkibida barcha musiqa san’atiga tegishli bo‘lgan saralangan ma’lumotlar, ya’ni ilmlar ummoni desak xato bo‘lmaydi. Shu bois, haqiqiy ilmsiz musiqaning qonun-qoidasi, siru-asrorlariga erishib bo‘lmaydi.

O‘tmishdan musiqani turli jihatlarini tadqiq etgan allomalarning meroslariga nazar solar ekanmiz, ijro asoslari va talqin masalasiga to‘xtalganligi, ijrochilarning tazkiraviy ma’lumotlarini keltirganliklari yoki musiqa ijrochiligi amaliyoti, ya’ni ijroda mahoratli ekanliliklariga guvoh bo‘lamiz. Bu naqadar ustuvor an’ana ekanligini ustoz Otanazar Matyoqubov o‘z risolalarida “Og‘zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish”, “Maqomot”, “Dodekogramma”, uch jilddan iborat “Uzbekskaya klassicheskaya muzika”, “Buxoro Shashmaqomi”, “Xorazm Dutor maqomlar va Olti yarim maqomii” va turli ilmiy maqolalarida) Xorazm, ayniqsa Farg‘ona maqomlarining tarkibiy asoslariga xos jihatlarida ko‘rsatishga harakat qilganlar. Ma’lumki, barcha maqom navlari aksariyat hollarda “Shashmaqom” mezonlariga qiyoslanib tahlil etilib kelinardi. Ilk bor Farg‘ona maqomlarining o‘ziga xos “navbat” tizimiga doxil ekanligiga e’tibor berildi. Farg‘ona maqomlarining shu asnoda tadqiq etish uchun asos mavjud ekanligi “Maqomat” risolasida qayd etildi. «Navba» tamoyillarining negizlari esa albatta ijrochilik mezonlarida, shubhasiz o‘z ifodasini topgan.

Ilm ummonida suzish zavqli. Lekin, faqat sog‘lom aql hamda amaliy baquvvat uslubda harakat qilish samaralar berishi mumkin. Yana muhim mezonlardan biri oqilona va to‘g‘ri yo‘l tanlashdir. Shunda kelajak sendan minnatdor, avlodlar esa bahramand bo‘lishiga ishonish mumkin. O‘zbek mumtoz musiqa san’ati juda boy va serqirra an’analarga ega ekanligi sir emas. Ularni chin

vijdonan munosib tadqiq etish, asosli idroklash va albatta samimiy bo‘lish eng muhim ahamiyat kasb etadigan omillardandir. Ushbu zilol musiqa ruhi barchamizga doimo hamroh bo‘lsin.

Ustozimiz bu yil 80 yoshni qarshi oldilar. Qutlug‘ yosh muborak bo‘lsin!

